
“Tashabbusli byudjet”: Bugun tumandagi 3 ta umumta’lim maktablarida 180 o’rinli qo’shimcha o’quv binolari foydalanishga topshirildi

Tumandagi 21-umumta’lim maktabiga “Obisiyo” mahallasida filial 2 qavatli 180 o’rinli bino qurilib, foydalanishga topshirildi. “Tashabbusli byudjet” dasturining joriy yilgi ikkinchi mavsumida ta’lim muassasasi uchun qo’shimcha yangi o’quv binosini qurish yuzasidan ilgari surilgan taklif jamoatchilik faolligida 7 mingtadan ko’p ovoz to’pladi. Loyihaga ko’ra, 1 milliard 200 million so’m mablag’ ajratilib, zamonaviy, barcha sharoitlar ega o’quv binosi barpo etildi.

Bugun ushbu yangi o’quv binosini ochilish marosimi bo’lib o’tdi. Unda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman prokurori Shuxratjon Musayevlar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdilar. Ular yangi o’quv binosida yoshlarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

2023-12-13 16:37:05